

”O‘TKAN KUNLAR“ ROMANIDA MUOMALA MADANIYATI VA UNING TA’SIRCHANLIGI

Z.S.Avezova.,

Xalqaro Osiyo Univesiteti 1-kurs magistri

Annotatsiya: o‘quvchining murakkab ijtimoiy hayotning insonlar muomala-munosabat mezonini qadrlash, o‘zaro o‘lchash va o‘rganishga ham dav’at etib, muomala madaniyati, odob-axloq qoidalariga amal qilishni o‘rgatadi

Kalit so‘zlar:”O‘tkan kunlar“, inson, insoniy fazilatlar, insonni qadrlash, ota-ona, farzand, muomala-madaniyati, ijtimoiy hayot, orzu-umid, oqibat, soddalik, samimiylilik, qo‘rs, tajanglik

Аннотация;Студент оценивает критерий отношения к общению с людьми сложной социальной жизни, учит культуре поведения следоваты вероятно разрешенным правилам

Ключевые слова:прошедшие дни, ребенок, человеческие качества, ценить человека, родители, ребенок, культура ведения дел, социальная жизнь, надеяться, страл, карона, простота, искроннасты

Abstract:In this article, the reader appreciates the criteria of dealing with people in complex social life, teaches to follow the rules of etiquette to the culture of behavior

Keywords: "Last days", person, dignity, person is value, parents, child, manners, culture, social life, wish-hope, result, simple, sincerity, rude, hot-tempered, hasty

Kirish;Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2017-yil 13 sentyabrda “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risidagi“ Qarorni imzoladilar.¹

Ushbu qarorda kitob mutolaasi yosh avlod tarbiyasida va ta’limida, nafaqat yosh avlod balki kattalar uchun ham muhim ekanligi bevosita o‘z aksini topgan.Shuning uchun barchani kitob o‘qishga jalb etish, madaniyatimizni, ma’naviyatimizni va tariximizni ko‘rsatadigan badiiy asarlarni chop etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ishtimoiy hayotda muomala madaniyati, kishilar o‘rtasida o‘zaro xushmuomalalik hamda iliq munosabat qurishda badiiy adabiyotimiz

1.Mirziyoyev.Sh.M “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish-PQ-3271-son.13.09.2017

muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, insonning kamol topishi, komillikka erishishi, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish

bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risidagi kishilar o'rtasida ham ma'nan ham jismonan kamolotga erishishi uzun ham yo'qotmagan asarlardan biri bu - Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidir. "O'tkan kunlar" ham mazmun, ham shakl, ham uslub jihatidan butun O'rta Osiyo xalqlari adabiyotida katta ijtimoiy qiziqish uyg'otdi. Shu bois, aynan qodiriyshunoslikka oid o'zgacha talqinlarni kuzatish niyatida xorij olimlari tomonidan bitilgan manbalarni imkon qadar ko'zdan kechiramiz.

Qozoq yozuvchisi Muxtor Avezovning: «Abdulla Qodiriy (Julqunboy) yuksak romanlar yaratdi. Uning romanlari 20-yillarda go'yo tekis sahroda to'satdan Pomir tog'lari vujudga kelganday paydo bo'ldi...» degan e'tirofini ko'pchilik yaxshi biladi. Aslida tekis sahroda tog' o'z o'zidan paydo bo'lib qolmaganidek, genetik nuqtai nazardan qaraganda, o'zbek romani ham mavjud mumtoz epik tafakkurning yangicha sharoit bergan mahsulidir. Bir qancha boshqa e'tiroflar va mulohazalar boshqa qardosh millat yozuvchilari tomonidan ham aytilgan. Bunday adib novatorligini, ustozligini ulug'lovchi fikrlar o'zbek adabiyotshunosligida mavjud qarashlarga juda hamohangdir.

Amerikada Abdulla Qodiriy ijodini o'rgangan olim Xristafor Maykel Murfi roman strukturasi, bayon uslubini «Alpomish» (qahramonlik eposi), «Kuntug'mish» (romanik epos), Alisher Navoiyning «Layli va Majnun», «Farhod va Shirin» dostonlari hamda xalq kitobi «Tohir va Zuhra»larga taqqoslashni ma'qul topadi. Tadqiqotchining diqqatini o'ziga tortgan muhim fakt shuki, «Tohir va Zuhra», «Farhod va Shirin» dostonlari «O'tkan kunlar» muqaddimasida tilga olinadi. Va demak, qiyos uchun asos ham borligi ko'rinadi.

X.Murfi yuqorida sanalgan beshta doston syujeti strukturasi tekshirib chiqqach: "O'tkan kunlar" romani voqea-hodisalarning joylashish strukturasi «o'quvchi qabul qiladigan» (ijobiy) va «o'quvchi qabul qilmaydigan» (salbiy) tarzda maxsus jadvalga soladi. Shu jadvaldagi «plus» va «minus», «ijobiy» va «salbiy» tomonlar kimgadir sodda yoki jo'n tuyulishi mumkin. Ammo bu jadval romanning syujet rivojini «ajralish» va «birlashish» tarzidagi izohi bilan ko'z oldimizda namoyon etadi. Tadqiqotchi syujetni bayon etishning bizning adabiyotshunosligimiz tajribasida ko'rilmagan yo'lini tanlagan" -deb yozadi.²

Ulug' o'zbek adibi Abdulla Qodiriy yaratgan o'lmas qahramonlarning nutqida xalqimizga xos o'zaro muomala-munosabat xususiyatining rang-barang holat, shakl va ko'rinishlari mahorat darajada tasvirlanadi. Har bir shaxsning o'zgaralar bilan munosabatida qat'iylik, soddalik, samimiylik, qo'rslik va tajanglik kabi tabiat mavjudligi adibning "O'tkan kunlar" asari matnida haqqoniy tasvirda o'z ifodasini

topgan. Inson tabiatidagi bunday munosabat shakllarining turli xilligi asarning qadriyatini yanada oshirgan bo'lsa ajab emas. Binobarin, asar qahramonlari Otabek, Kumush, Yusufbek Hoji, O'zbekoyim, Oftoboyim, Mirzakarim qutidor xarakterida umumiy xususiyat-yuksak insoniy fazilatlarini mujassam. Biroq ularning orzu-xayollari, hayotiy maqsadlari turlichadir. Chunonchi, O'zbekoyim-o'z maqsadiga qo'rslik bilan erishishga intiladi. Yusufbek Hoji-vazminlik, yuksak mulohazakorlik, Mirzakarim qutidor-tabiatida andisha ustunlik qiladi.

Biz ushbu fikrlarimizni asarning "Ota-ona orzusi" va "Unutmaysizmi", "Qulimiz" qismlaridagi matn parchasi asosida dalillamoqchimiz. Chunonchi, Yusufbek hoji muomalasi farzandiga cheksiz mehr-muhabbat shuuriga o'ralib ifodalanadi.

....Bu kun onang sening oldingga tiz cho'kib va onang ko'ngli uchun men ham oraga tushib sendan so'rayman: sen o'z xohishing yo'lida uylangan ekansan, rafiqang senga muborak bo'lsin. Eslilik da'vosida yurgan ota-onang tilagiga, albatta, shundan boshqa bo'lmas. Shu bilan birga, sening sababi vujuding bir, kishi o'z hayoti ichida bolasi orqali bir orzu-havas kechirmoqchi.... Uning bu orzusiga haq berasanmi, yo'qmi, yana ixtiyor o'zingda....!(1,164), Yusufbek hoji muomalasi o'tkir, ta'sirchan. U o'z maqsadini bildirishda hatto, fikrini mehrini ham "achchiqlik" bilan bildiradigan xotini O'zbek oyimni "tiz cho'kuvchi" ona tarzida o'zining tabiatiga moslaydi. Lekin u xotining tabiatini, muomalasini yaxshi biladi: "Bilgan topib so'zlar bilmagan qopib" Bunday mulozamatli munosabatni, hatto Mirzakarim qutidorga yuborgan maktubda ham ko'rish mumkin"(1.165-174) Mirzakarim qutidorning ham boshqalar bilan mulohaza munosabatida o'zgalarga hurmat, andisha kabi xususiyatlar yuqori turadi. Bu tabiatlar har bir o'zbekka xos fazilat sanalmog'i lozim. Chunonchi, keksalarning tipik vakili bo'lgan Mirzakarim qutidor yakka-yu yagona qizi ustiga kelin tushurmoq bo'lgan qudalarning orzu-niyatini xotiniga shunday ohangda tushuntira oladi:

-Pichoqni o'zingga ur, og'rimasa boshqaga, degan bir gap bor, dedi jiddiy vaziyatda qutidor-mendan ham sen yaxshiroq tushunib turibsanki, agarda bizning rizoligimiz bo'lmas ekan, Otabek sira ham ikkinchi uylanmaydi. Masalan, biz ikkov qudalarning o'rnida bo'lib yolg'iz o'g'limiz boshqa bir shaharda bir qizga uylanganda, o'ylab qara chiday olarmidik? O'g'limiz ko'nmaganda ham o'z shahrimizdan ikkinchi uylantirishga kirishmasmi edik? Bu tilagimizga qarshi tushib o'g'limizni o'z shahri va o'z uyida olib o'ltirguvchi qudalarimizga la'nat o'qib, o'lim tilamasmi edik?

Yusufbek hoji va Mirzakarim qutidor timsolining ulug'vorligi-uning nutqidagi xalqimiz keksalariga xos fazilat: o'zgalar oldida hurmat, mehr-muhabbat, tavoze va andishaning yuksakligidir. Har bir shaxs o'zaro muomala-munosabatida ana shu

go‘zal fazilatlar mujassamlangan mukammal tabiati bilan tinglovchisiga ehtirom ko‘rsata olsagina, u o‘z nutqining ta‘sirchanligiga ham erisha oladi.

Xuddi ana shunday ko‘rkam munosabatni Otabek va Kumush suhbatida ham kuzatish mumkin. Bu suhbatgacha ular orasida ishq-muhabbat dunyosiga alamli raxnalik dardini solgan ”ota-ona orzusi” o‘z hukmini o‘tkazib qo‘ygan edi. Shunday bo‘lsada, unga oliyjanoblik qiladi. Otabekning uylanish haqidagi xabardan jahl otiga minmaydi, andishalik ko‘rsatadi.

-Men rozi, men ko‘ndim!-dedi daf‘atan Kumush, bu so‘zni nimadandir qo‘rqqandek shoshib aytadi.

Bu gapni eshitib, Otabek taajjub va hayratga tushadi:

-Ko‘ndingiz...nega, a? (1,182).

Har qanday kitobxon ham, oshiq –ma‘shuq ham taqdir hal bo‘lib qolgan bu vaziyatdagi holatga ishonmaydi. Lekin Otabek va Kumush o‘rtasidagi ishqning ilohiy kuch qudrati ular munosabatining barqarorligini ta‘minlay oladi.

Kumush:

-O‘zim-dedi va keyinda o‘zing hamma tilak va shartlari ma‘nosining jami bo‘lgan,-meni unutmaysizmi? –degan so‘rog‘ini berdi(1, 182)

...Kumush Otabek yaqiniga surildi va tirsaklari bilan uning tizzasiga yonboshlab erkalandi.(1,183).Xarakter tasvirida yozuvchi hayot haqiqatiga mos ravishda ularning xilma-xilligi , bir-biriga o‘xshamasligini ko‘rsatishga intiladi va shunga erishadi hamda shu bilan hayotning rang-barang ekanligini haqida tasavvur uyg‘otdi. Chunonchi, Otabek va Hasanali o‘rtasida kechgan suhbatida ham ko‘rish mumkin:

Otabek mehmonlarni tanchaga o‘tquzib, fotihadan so‘ng Hasanalidan so‘radi:

-Tuzikmisiz, ota?

-Xudoga shukur, -dedi Hasanali, -boyag‘idan biroz yengillashdim. Mazmuni is tekkan ekan.

-Bazi yumushlar buyursam...

-Buyuringiz , o‘g‘lim.

-Rahmat, ota, bo‘lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.

-Xo‘p, begim.

Biz bilamizki Hasanali Otabekni oilasini quli, lekin Otabek unga qullarcha munosabat qilmadi. Otabek unga ish buyurmoqchi, ammo to‘g‘ridan –to‘g‘ri ish buyirmayapti. Unga dastlab, tuzikmisiz, ota deya ahvolini so‘rayapti va ba‘zi ishlarni buyirsam-deb murojaat qiladi. E‘tibor beradigan bo‘lsak, Otabek unga ota dedi.Hasana bung javoban buyuringiz o‘g‘lim,- dedi. Hasanali ish buyirilganidan so‘ng qulligini his etgan holda xo‘p, begim deb javob beradi.

Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qaytib sog‘liq so‘rashgandan keyin so‘radi:

- Bu kishi kimingiz bo‘ladir, bek aka?

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalining hujradan uzoqlatib so‘ngra javob berdi:

-Qulimiz. (1, 6)

Bu asardagi ikki insonning bir-biriga munosabati nozik bir axloqiy tarbiyaga asoslangan. O‘zbeklar turmushini, tarixini, tilini, urf-odatlarini yaxshi bilgan

Abdulla Qodiriy ulardan o‘z asarlarida juda unumli va o‘rinli foydalandi.

Adibdan qolgan muhtasham adabiy merosda o‘zbek adabiy tilining go‘zalligi, nafosati, tasvir va ifoda imkoniyatlari aynan amaliyotda o‘z aksini topdi. Shu bilan birga Abdulla Qodiriy ba‘zan filolog olimlarga xos qimmatli adabiy-nazariy qarashlari bilan ham o‘zbek adabiy tilining takomillashuviga ulkan hissa qo‘shdi.

Xullas yozuvchi ”O‘tgan kunlar“ romanida bir qancha ijobiy obrazlar tizimi orqali murakkab taqdir voqeliklarni tasvirlab qolmasdan, ular o‘rtasidagi munosabat ko‘rinishlarining rang-barang olamini yaratadiki, bu o‘quvchining murakkab ijtimoiy hayotning insonlar muomala-munosabat mezonini qadrlash, o‘zaro o‘lchash va o‘rganishga ham dav’at etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev. Sh. M. “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish-PQ-3271-son.13.09.2017

2. Qodiriy. A. ”O‘tgan kunlar“- Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1992,-254b.

3. Qodiriy A. ”O‘tgan kunlar“- Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018,-476b.

4. Bahodir Karim. ”Abdulla Qodiriy“- Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi ”Fan“ nashriyoti, 2006,-112b.

5. Bahodir Karim. ”Dunyoolimlari nigohida“ Abdulla Qodiriy va germeneytik tafakkur“- Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi ”Fan“ nashriyoti,-2016-176b

6. Bahodir Karim. ”Yangilanish sog‘inchi“ Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi ”Adabiyot jamg‘armasi“ nashriyoti, 2004-141.

7. Mirzayev. S. XX asr o‘zbek adabiyoti.-T.: Yangi asr avlodi, 2005 ”Science and Education“ Scientific Journal may 2021/ Volume2 Issue5 www.openscience.uz